

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.A.Abdualiyev

Tabiiy-geografik omillarning aholi joylanishiga ta'siri bo'yicha ayrim xulosalar (Farg'ona vodiysi viloyatlari misolida) 101

M.X.Otamirzayeva

Daryo havzalari landshaftlarini tadqiq etishning zamonaviy metodlari 108

ILMIY AXBOROT**M.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov**

Sintaktik-stilistik figuralar konvergentsiyasi 115

A.A.Mirzayev

Ibn Al-Arabiyning tasavvufiy qarashlarining asosiy yo'nalishlari va yondashuvlari 119

J.J.Shodiyev

Inson qadrini yuksaltirish borasida Abdulqodir Bedilning falsafiy g'oyalari 125

M.И.Темирова

F.M.Dostoevskiyning "Aka-uka Karamazovlar" romanida ota va farzand munosabatlari..... 130

A.M.Mamajonov

Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari 135

P.Sh.Kaxramonova

Badiiy asar tili va ekolingvistika (O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romani misolida) 141

J.U.Umaraliyeva

Zavqiy she'riyatida antroponimlarning qo'llanilishi 144

D.S.Ergasheva

O'zbek xalq ertaklari asosida vatanparvarlik va do'stlikka o'rgatishning pedagogik strategiyasini takomillashtirish 148

D.X.G'aniyeva

"Ta'lim" mikromaydonining paremiologik birliklari 153

X.X.Abduraxmonov

Maktab o'quvchilarning yengil atletika mashqlari orqali jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish 157

G.T.Hojikarimova, Sh.Usarova

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kompetensiyasini rivojlantirish usullari (tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish fani misolida) 161

O.Q.Abdullayev

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari..... 164

J.Sh.Nazarov

Pedagogik OTM talabalarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish hamda yuksaltirishning amaliyotdagi holati 168

Sh.F.Latipov

Madaniy kontekstda lakunaga yondosh hodisalar 173

D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova

Siddiq Mo'min ijodida mehr konseptining ifodalanishi..... 175

Sh.M.Robilova

Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik va pedagogik ahamiyati 179

M.Sotvoldiyeva, G.Mirodiljonova

Chet tili o'qitish metodikasida zamonaviy usullar..... 183

R.R.Abdusattorov

Bolalarni suzishga o'rgatishda tayyorlov guruhining nazariy va amaliy asoslari..... 186

H.Arabboyev

O'quvchilarni ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirish texnologiyasi 192

F.Xalikov

Ta'lim tizimida testologiyadan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari 197

M.I.Yusupova

Rus tilidagi ommaviy axborot vositalarida "Vatanparvarlik" konseptining ifodalanishi 204

BADIIY ASAR TILI VA EKOLINGVISTIKA
(O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romani misolida)

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ЯЗЫК И ЭКОЛИНГВИСТИКА
(На примере романа Уткира Хашимова "Сны прошлых жизней")

ARTISTIC LANGUAGE AND ECOLINGUISTICS
(On the example of Otkir Hashimov's novel "Dreams of Past Lives")

¹Kaxramonova Parizoda Sherzod qizi

¹Farg'ona davlat universiteti, o'zbek tili yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tilshunoslikda paydo bo'layotgan zamonaviy yo'nalishlar va bugungi kunda ekolingvistika o'zbek tilshunosligining dolzarb yo'nalishlaridan biri ekanligi hamda tilshunoslikning muammolari qatoridan joy egallayotgan til sofligini saqlash haqida fikrlar bayon etilgan. Muallif O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanida qo'llangan ba'zi ekolingvistik hodisalar haqida to'xtaladi.

Аннотация

В данной статье описаны формирующиеся современные направления в языкознании и то, что эколлингвистика является одним из актуальных направлений узбекского языкознания. А также о сохранении чистоты языка, что является одной из проблем языкознания. Автор останавливается на некоторых эколлингвистических явлениях в романе Уткира Хашимова "Сны прошлых жизней"

Abstract

This article describes the emerging modern trends in linguistics and the fact that ecolinguistics is one of the current directions of Uzbek linguistics. And also about preserving the purity of the language, which is one of the problems of linguistics. The author dwells on some ecolinguistic phenomena in the novel by Otkir Hashimov "Dreams of past lives"

Kalit so'zlar: ekologik munosabat, varvarizm, tilshunoslik, til sofligi, ekolingvistika.

Ключевые слова: экологическое отношение, варварство, языкознание, чистота языка, эколлингвистика.

Key words: ecological attitude, barbarism, linguistics, purity of language, ecolinguistics.

KIRISH

Til- xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini bog'lovchi ulug' karvon yo'li, ma'naviyat olamini tutib turuvchi ustun, xalq hayotining oynasi, uning tiniq ko'zgidir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili-bu millatning ruhidir [1,79].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jahondagi ilg'or xalqlar o'z tillari ustida jiddiy izlanishlar olib borib, tilshunoslikning yangidan-yangi yo'nalishlariga asos solayotgan bir paytda biz hanuz ona tilimizning bugungi ahvoli haqida o'ylashga majbur bo'lyapmiz. Hozir tilshunoslikda kognitiv lingvistik, ekolingvistika, biolingvistika, korpus lingvistikasi, gender lingvistikasi, neyrolingvistika, internet-lingvistik singari zamonaviy yo'nalishlar paydo bo'ldi va jadal taraqqiy etmoqda.

Dunyoda fan va texnika imkoniyatlarining oshishi tabiat va jamiyatda ekologik munosabatlarni vujudga keltirdi. Natijada tabiatni asrash, olamni qutqarish degan tushunchalar tilshunoslik sohasiga ham kirib, ekolingvistika yo'nalishini shakllanishiga turtki bo'ldi. Hozirgi kunda "Lingvoekologiya, ekolingvistika" deb ataluvchi lingvistikaning mustaqil sohasi tadqiqotchilarning e'tiborini tortmoqda. Ijtimoiy ekologiyaning o'rganish obyekti ekologiya ijtimoiy muhitga, ijtimoiy muhit esa jamiyatdagi tilning o'zgarishiga sabab bo'ladi.

"Til ekologiyasi" atamasi nisbatan yaqinda paydo bo'ldi. Ammo tillar doimo muvozanat va bir-birlari bilan o'zaro aloqada bo'lgan. Bu bir tomondan, ularning o'zaro rivojlanishiga, boshqa tomondan, buzilishiga olib keladi. Til ekologiyasi tilshunoslikda yangi yo'nalishdir. Til ekologiyasi har bir alohida tilning o'ziga xosligini saqlab qolish va lingvistik xilma-xillikni saqlash uchun tilning atrofdagi omillar bilan o'zaro ta'sirini o'rganadi. Ekologiya tirik organizmlarning bir-biri bilan o'zaro ta'sirini o'rganani kabi til ekologiyasi ham tillarning bir-biriga ta'sirini va ularning tashqi omillar bilan o'zaro ta'sirini o'rganadi. Zamonaviy jamiyatdagi nutqiy vaziyat odamlarning milliy tili va madaniyatining umumiy holatini belgilaydi. Til ekologiyasi tilning qanday ko'rinishini, unga ta'sir

ko'rsatadigan va nimaga olib kelishini ko'rib chiqadi. Hamma o'zgarishlar zararli emas. Vaqt o'tishi bilan til o'zgaradi. Har qanday zamonaviy tirik til bir necha asrlar ilgari bo'lganidan farq qiladi. Til ekologiyasining vazifalari tilni har qanday ta'sirdan yopish emas, balki o'ziga xosligini saqlab qolish, shu bilan birga yangi va foydali narsalarni kiritishdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Til sofligini saqlashda hozirgi ba'zi yoshlar ko'p qo'llaydigan so'z va iboralar, ya'ni varvar so'zlar haqida gapirmasdan bo'lmaydi. "Varvarizmlar" yunoncha barbarismos so'zidan olingan bo'lib, "kelgindi" degan ma'noni bildiradi. Ona tiliga o'zlashmagan, uning me'yorlariga mos bo'lmagan, o'zga til hodisasi sifatida qo'llanadigan so'z va iboralar. Varvarizmlardan, odatda, o'zga yerga xos rasm-odatlarini tasvirlashda, mahalliy koloritni yaratishda foydalaniladi [4, 126].

Mashhur adib O'tkir Hoshimov o'zining so'nggi romani "Tushda kechgan umrlar" asarida yigirmanchi-o'ttizinchi yillar, urush davri "tozalashlari", urushdan keyingi ziyolilar qatag'oni, afg'on urushi va "paxta ishi" repressiyalarini xronologik izchillikda yoritadi [3, 598]. Roman voqealari Rustamning oxirgi kundaligidan boshlandi va asta-sekin Qurbonoy xolaning har kungi yumushlariga o'z o'rnini bo'shatib beradi. Romanning asosiy voqealari to'rt oy ichida bo'lib o'tadi. Ya'ni Rustamning vafotidan uning o'limi haqidagi ish yopilguncha. Qistirma epizodlarda romanning asosiy voqealariga qahramonlarning kundaligi, xotiralari, xatti-harakatlari, o'y-fikrlari, esdaliklari tarzda mohirlik bilan singdirib yuboriladi. Roman bosh qahramoni Rustam oliygoh talabasi, sovuq urush tufayli Afg'on urushi qatnashchisi, ayni chog'da jabrlanuvchisi. U yuzaga kelgan afg'on urushidan zarbaga uchrab, eng achinarlisi, majruh bo'lib uyiga qaytadi.

O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" [5] asarining tahlili jarayonida quyidagi o'rinlarda varvarizmlarga asoslangan badiiy nutqlarni uchratdik:

1. Bannisaga yotqizishga order kerak ekan. Order yo'q emish.
2. "Operatsiya qilish kerak, xola,—dedi do'xtir.—Boshqa iloji yo'q".
3. Bugun sut kelmas ekan. Do'kon kecha bayramda ishlagani uchun bugun otdix qipti.
4. Ertalab kasha pishirib yemasam, me'dam og'riydi.
5. Ko'chaning narigi betidagi katta darvozali uchastka prapisirniki.
6. Grajdanka Shomatova, ayting-chi, nima uchun Piskentdagi hovlida turmay, Toshkentga ko'chib keldingizlar?
7. Qaytib kelib, o'zining paxtasini ham yengilgina ko'tardi-da, yo'l chetida turgan telejka tomon tez-tez yugurib ketdi.
8. So'roq qilishni bilmas ekansiz. Umuman, sistemangiz aynib ketgan.
9. Vot masala qayerda! Hay, mayli, Shomatovning xotinini tergov qildingmi?
10. Hamma "demokratiya" deb chinqiradi. "Perestroyka" dedi. Oshkoralik deydi!
11. Lyuboy jinoyatchining aybini uch kunda bo'yniga qo'yib bermasak, tuf de!
12. To'g'ri, "gorshok operatsiyasi" xotinlardan ko'ra erkak kishida yaxshi effekt beradi.
13. Oktabr rayon hushyorxonasiga telefon qilsangiz, hamma spravkani olasiz.
14. Kamida o'n besh sutka naqd edi-ku, ertasiga Grisha debut yigitga yalinib-yolborib, "bir joyga" telefon qilishga ruxsat oldi.
15. Tushdan keyin do'konga keladigan "bormatuxa"ga ochirid kutishadi.

Yuqorida tahlilga tortilgan bannisa (bolnitsa), operatsiya, do'xtir (doktor), otdix, kasha, uchastka, grajdanka, telejka, vot, perestroyka, lyuboy, gorshok, effekt, spravka, telefon qilmoq, ochirid leksemalari varvarizmlar hisoblanib, ona tilimizda muqobillari mavjud (bannisa-kasalxona, do'xtir-shifokor, kasha-bo'tqa, grajdanka-fuqaro, vot-mana, perestroika-qayta qurilish, lyuboy-xohlagan, istalgan, gorshok-tuvak, effekt-ta'sir, spravka-ma'lumotnoma, ochirid-navbat, telefon qilmoq-qo'ng'iroq qilmoq, telejka-arava, otdix-dam olish), lekin yozuvchi ulardan asarning nutqiy ta'sirchanligini oshirish, qahramonlar nutqini individuallashtirish madsadida foydalangan.

Bunda O'tkir Hoshimovning obraz yaratishdagi mahoratini o'rganish bilan birga uning badiiy matnda qo'llangan ekolingvistik vositalardan mohirona foydalanganligini isbotini ko'rdik.

XULOSA

Tilimiz sofligini saqlash unga to'g'ri kelgan-kelmagan so'zlarni tiqishtirishga yo'l qo'ymaslikni anglatadi.

"Bugungi globalashuv davrida har bir mustaqil davlat o'z milliy manfaatini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish

masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir” [2]. Minglab yurtlarning havasini keltiruvchi, bugun jahon sahnalarida tobora nufuzi oshib borayotgan tilimiz bor ekan, ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni yot soʻzlardan qoʻriqlashimiz darkor.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch.-Toshkent, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli-O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni.// www.lex.uz
3. O'zbekiston milli ensiklopediyasi 3-tom.
4. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.-T., 2013.
5. Hoshimov O'. Tushda kechgan umrlar.-Toshkent, 2019.